



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Julmatova Dilnoza Jur'atjon qizi**

*SamDU 3-bosqich talabasi*

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINING JORIY ETILISH MASALALARI

**Annotatsiya** : ushbu maqolada Respublikamizdagi alohida ta'lim ehtiyojiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiylashtirish hamda faol hayot tarziga kirib borishlari uchun beriladigan amaliy yordam ko'rsatish borasidagi pedagogik va psixologik jihatlariga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko'rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta'lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta'lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Ko'zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor va soqov bolalarga mo'ljallangan 86 ta maxsus ta'lim va aralash maxsus muassasalar, 982 ta maxsus bolalar bog'chalari mavjud.

Hozirgi kunda qator ekologik, ijtimoiy va boshqa sabablarga ko'ra, shuningdek homiladorlikdan keyingi patologik asoratlar natijasida bola rivojlanishi va birinchi navbatda, uning ongi, atrof-muhit tahlili holda faoliyatini nazorat qilish va boshqarish funksiyalarining rivojlanish masalasini o'rganish muhimdir.

UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar



aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

- UNICEF Xalq ta'limi vazirligining defektolog va psixologlarning inklyuziv ta'limdagi roli to'g'risidagi nizomlar loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashdi;
- UNICEFning ko'magi inklyuziv ta'lim bo'yicha 5 yillik ish rejasi ta'lim sohasining umumiy rejasiga kiritilishini ta'minladi.

**O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi**- ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashtirish, qamrab olish ma'nolarini anglatadi) bu jismoniy imkoniyatlari cheklangan va maxsus ehtiyojli bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan, bolaning bolaning ehtiyojlarini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim shaklidir.

Inklyuziv ta'lim-jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga olib kirish manosida qo'llanib, integratsiyadan farqli ravishda "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga muvofiq tarzda barcha bolalarning ta'lim olishdagi huquqlarni ta'minlashga qaratilgan. Barcha bolalarning birgalikda ta'limi ularning har biriga individuallashtirilgan ta'lim asosida amalga osiriladi. Ya'ni u yoki bu jihatdan rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar barcha sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olsalarda, ular o'z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'lim ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari ta'minlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki, o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi- "Inklyuziv maktablardan-imklyuziv jamiyat sari" shiori asosiga qurilgan.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'uliyatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga katta umid bilan qaratadi. Dunyoga- O'zbek modeli deb nom olgan rivojlanish yo'li bilan tobora ko'proq tanilayotgan O'zbekistonda ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bolalar huquqlarini himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada, u sog'lommi yoki nogironmi takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bibimlarga ehtiyoj mavjud. Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat



qiladigan, ijtimoiy adolat hmada temhlikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi *inklyuziv ta'lim* deyiladi.

Inklyuziv ta'lim nogiron (jismoniy imkoniyatlari cheklangan) bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini shunday bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir bogliq tomonlari tog'ri qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron (darajasiga ko'ra) bolalarni ham o'zlari hohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Bolaning xolatiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydishi shart.

Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta'limini uch xil ibora bilan ta'riflash mumkin, ya'ni:

- Mos keluvchi;
- Rivojlantiruvchi;
- Inklyuziv.

Konvensiyaning bir necha moddalarini izohi yuqoriga isbot bo'la oladi:

1. Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor:- Tirik qolish va rivojlanish. Bu modda mos keluvchi ta'limga taaluqli.

2. Rivojlantiruvchi ta'lim 29-moddada ko'rsatilgan:- Ta'lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltirilgan bo'lishi, bolani erkin va jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak.

3. 2- va 28-moddalar inklyuziv ta'limga tegishli bo'lib, ularda kamsitishning oldidni olish, ta'lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda inklyuziv ta'lim barcha alohida ta'lim ehtiyojiga muhtoj bo'lganlar uchun ta'limdir. Aynan shunday o'quvchilar maxsus qoliliyatini yuqori darajada rivojlantira oladilar. Chunki, ulandagi bir cheklov boshqa bir jihatga beradigan kuchni ko'paytiradi. Ya'ni bir tomonga kelishi kerak bo'lgan kuchni ular ikki karra maxsus qoboliyatiga bera olish imkoniyatiga egadirlar. Jamiyat shu imkonni berishga tayyor turishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rahmonova V.S. Maxsus pedagogika.- T.:TDPU,2017-211-b.
2. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlanishi" mavzusidagi ilmiy- nazariy Konferensiya materiallari. Toshkent- "Uzinkomsent"-2002-yil.
3. Imkoniyatlari cheklangan bolalar va o'smirlar uchun imklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida muvaqqat Nizom. O'RXTV., 19-sentabr, 2005.
4. " Maktabin olqishlab- imklyuziv maktabdagi nogiron o'quvchilar"- YUNESKO-1999-yil.